DEN BRAUN ROMANLARI TARJIMASIDAGI LEKSIK TRANSFORMATSIYALAR

Farangiz Anvarovna Anvarova
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: farangizanvarova9624@gmail.com
Tel: 99 468 03 87

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada badiiy tarjima jarayonida yuzaga keladigan leksik muammolarni hal qilishda foydalaniladigan leksik transformatsiyalar haqida so'z yuritiladi. Leksik birliklar tarimasi kontekstning ma'nosiga bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Tarjimada ikki til o'zaro solishtiriladi va so'zlar muqobillari bilan almashtiriladi. Ushbu maqolada Den Braun romanlari tarjimalarida uchraydigan shu kabi holatlar bir nechta misollar bilan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: badiiy tarjima, leksik transformatsiya, leksik almashtiruv, umumlashtirish, antonimik tarjima, kompensatsiya.

LEXICAL TRANSFORMATIONS IN THE TRANSLATION OF DEN BROWN'S NOVELS

Annotation: This article discusses lexical transformations used to solve lexical problems that arise in the process of literary translation. The translation of lexical units is carried out depending on the meaning of the context. In translation, two languages are compared and words are replaced with alternatives. This article analyzes several examples of similar situations in the translations of Dan Brown's novels.

Key words: literary translation, lexical transformation, lexical substitution, generalization, antonymic translation, compensation.

ЛЕКСИЧЕСКИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ В ПЕРЕВОДЕ РОМАНОВ ДЕНА БРАУНА

Аннотация: В данной статья рассматриваются лексические трансформации, используемые для решения лексических проблем, возникающих в процессе художественного перевода. Перевод лексических единиц осуществляется в зависимости от смысла контекста. При переводе сопоставляются два языка, и слова заменяются альтернативными вариантами. В данной статья

анализируются несколько примеров подобных ситуаций в переводах романов Дэна Брауна.

Ключевые слова: художественный перевод, лексическая трансформация, обобщение, антонимический перевод, компенсация.

KIRISH. Tarjima - bu bir tilga tegishli matn, so‘z yoki nutqni boshqa bir tilda ma’no jihatdan to‘g‘ri va aniq ifoda qilish jarayonidir. Tarjimaning ko‘plab turlari mavjud bo‘lib, ulardan asosiylaridan biri badiiy tarjimadir. Badiiy tarjima yozma tarjimaning eng qiyin janrlaridan biri hisoblanadi. Badiiy tarjimani ilmiy jihatdan o‘rganishga bag‘ishlangan qator tadqiqotlarda badiiy matnlarni tarjima qilish qiyin deb hisoblanishi haqida turli fikrlar mavjud. Badiiy matnlarni tarjima qilish uchun ikkala tilni ham mukammal bilish, so‘zlarga qobiliyat va til tuyg‘usidan tashqari, tarjimon badiiy qobiliyatga va yozuvchi yoki shoir iste’dodiga ega bo‘lishi kerak degan qarashlar ham mavjud.

Badiiy tarjima - bu adabiy asarlarni (roman, hikoya, she’r, drama va hokazo) bir tildan boshqa tilga o‘girish jarayonidir. Bunda nafaqat so‘zlar, balki asar ruhi, uslubi, obrazlari va hissiyotlarini ham iloji boricha saqlab qolishga harakat qilinadi.

Badiiy tarjimaning bir nechta xususiyatlari farqlanadi: 1.Asl matnga sodiqlik – tarjima asar mazmunan asl matnga yaqin bo‘lishi kerak; 2.Badiiylikni saqlash – asarning go‘zalligi, obrazlar, tasvirlar, badiiy uslub tarjimada ham aks etishi zarur; 3.Muallif uslubini yetkazish – muallifning o‘ziga xos yozuv uslubi, ohang va kayfiyati saqlanadi; 4.Madaniy moslik – madaniy realiyalar, urf-odatlar, milliy tushunchalar to‘g‘ri va tushunarli tarzda tarjima qilinadi; 5.Obraz va ramzlarning to‘g‘ri talqini – asarda uchraydigan ramz, timsol va metaforalar ma’no jihatdan buzilmay tarjima qilinadi; 6.Kontekstga moslik – har bir so‘z, ibora yoki jumla kontekstda qanday ma’no berayotganiga qarab tarjima qilinadi; 7.Hissiy ta’sirni saqlash – asarning o‘quvchiga yetkazmoqchi bo‘lgan hissiy ta’siri tarjimada ham aks etadi [1,68].

Jahon adabiyoti durdonalarining o‘zbek tiliga o‘girilgan qator namunalari sirasida zamonaviy amerikalik yozuvchi Den Braun asarlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotda Dan Braun qalamiga mansub asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda tarjimonlar tomonidan qo‘llanilgan leksik transformatsiyalar turlari tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM. Ma’lumki, boshqa tillarda tarjima qilish jarayonida til birliklari har doim ham moskelavermasliginimkuzatamiz. Tarjimada so‘zga so‘z, so‘zga so‘z birikmasi, so‘zga gap to‘g‘ri kelishi mumkin. Shuning asosida tarjima jarayonida leksik birlik deganda, so‘z va so‘z birikmasini, hatto bitta so‘zga to‘g‘ri keladigan frazeologik birlikni ham tushunish mumkin. Har ikkala tilning leksik birliklari to‘liq yoki qisman

mos kelishiga ko‘ra, ular to‘liq yoki qisman ekvivalentlik hosil qila oladi. Bir tildagi ba’zi so’zlarning boshqa tilda ekvivalenti bo‘lmasligi mumkin. So‘zma-so‘z tarjima usulidan foydalanish natijasida yuzaga keladigan g‘aliz birikmalarni qo‘llashdan qochish, ularning o‘rniga adabiy, hamma tushunadigan so’zlarni tanlash uchun leksik transformatsiyadan foydalaniladi.

Leksik tranformatsiya tarjima nazariyasida so‘zlarni kontekstda almashtirish deb ham yuritiladi [2,109]. Mashhur amerikalik yozuvchi Den Braun asarlarining o‘zbek tilidagi tarjimalarida ham leksik transformatsiyaning bir nechta turlaridan samarali foydalanilganligining guvohi bo‘lamiz. Ular quyidagilar:

1.Tarjima jarayonida bir tildagi ko’p ma’noli so’zlar yoki ma’nosi noaniq so‘zlarni boshqa tilga tarjima qilganda, avvalo, o‘sha so’zlarning ma’nosiga aniqlik kiritiladi yoki konkretlashtiriladi. Transformatsiyaning bu turida tarjimon asliyat so‘zning denotativ va konnotativ ma’nolarini to‘g‘ri farqlab olishi va ayni kontekstdagi ma’nosini tushunib yetishi lozim. Misol uchun, ingliz tilidagi *“you”* kishilik olmoshini oladigan bo’lsak, o’zbek tiliga ham *“sen”,* ham *“siz”* deb tarjima qilinadi. Tarjimon uning qaysi ma’noda kelganini kontekst orqali aniqlay oladi, ya’ni bu so’zning qo‘llanilish doirasi (kimga, qay maqsadda) inobatga olinadi.

Shu kabi holatni Den Braunning “Da Vinchi Siri” asarida ham uchratishimiz mumkin: *“He and the revered curator Jacques Sauniere had been slated to meet for drinks after Langdon’s lecture tonight”* jumlasi o‘zbek tiliga quyidagicha tarjima qilingan: *“Haqiqatan ham u ma’ruzadan keyin muhtaram Jak Soner bilan uchrashishga va bir piyola choy ustida suhbatlashishga kelishgan edi”.* Bu yerda *“meet for drinks”* so‘z birikmasi o’zbek tiliga *“bir payola choy ustida suhbatlashish”* tarzida o‘girilgan. Tarjimon *“drinks”* so‘zini konkretlashtirib ichimlikning bir turi *“choy”* ga o‘zgartirgan va bu bilan madaniy moslikka to’g’ri yondashgan, chunki choy o’zbeklarning milliy ichimligidir.

2. Transformatsiyaning yana bir turi umumlashtirish (generlaizatsiya) deb ataladi. Tarjimada aksariyat hollarda asliyatda berilgan matnning tarjima tili normalarida ortiqcha hisoblangan ba’zi tushunchalar umumlashtiriladi. Ingliz tilida odamning bo‘yi, og‘irligi aniq raqamlarda berilishi qabul qilingan. O‘zbek tilida bo‘y balandligi novcha, baland, daroz so‘zlari, vazn esa og‘ir, yengil kabi aniqlovchilar bilan beriladi. O‘zbek tilida bo‘y va vaznga nisbatan ishlatilgan turli raqamlar ortiqcha hisoblanadi. Umumlashtirish so‘zning farq qiluvchi ma’nolarini tarjima qilishda ham keng qo‘llaniladi. Tarjima amaliyotida umumlashtirish tarjimaning pragmatik xususiyatlariga ham bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. Masalan, asliyat matnidagi atoqli otlar o‘sha tilda so‘zlovchilar uchun informativ ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin, lekin tarjima tilida bular hech

qanday informativ ahamiyatga ega bo'lmaydi. Natijada bu kabi leksik birliklar umumlashtiriladi.

Generalizatsiya stilistik maqsadlarda ham amalga oshirilishi mumkin. Masalan, *"a young man of 6 feet 2 inches"* birikmasi *"baland bo'yli yigit "* shaklida o'girilib, umumlashtirilishi mumkin [3,4]. Den Braunning "Farishtalar va Iblislar" asaridagi *"My God is better than your God"* gapi o'zbek tiliga *"Mening e'tiqodim sizning e'tiqodingizdan yaxshiroq"* deya tarjima qilingan. Ushbu o'rinda shu narsa ko'zga tashlanadiki, *"Xudo"* so'zi umumlashtirilgan holda *"e'tiqod"* so'zi bilan almashtirilgan. Balki, bu yerda tarjimon diniy jihatdan Xudolarning solishtirilmasligini ham ko'rsatib bermoqchi bo'lgandir.

3. Transformatsiyaning keyingi turi ikki hodisa o'rtasidagi mantiqiy aloqaga asoslanadi, ya'ni asliyat matn va tarjima variant. Bu transformatsiya matnda tasvirlangan vaziyatning semantik hamda mantiqiy tahlilini talab etadi va matndagi vaziyat semantik jihatdan rivojlantiriladi. Agar vaziyat semantik jihatdan to'g'ri rivojlantirilsa, ya'ni asliyat matni va tarjima matnidagi fikrlar bir-biriga semantik jihatdan bog'lansa, transformatsiya tarjima tili normalariga rioya qilgan holda, matndagi mazmunni berishga xizmat qiladi. Tarjimada sabab natija bilan almashtiriladi. Amaliyotda natija sabab bilan almashtiriladigan hollar ham uchrab turadi: *"I not only shared a cabin with him and ate three meals a day at the same table"* gapining o'zbek tiliga tarjimasida xuddi shu narsa kuzatiladi. Bu gapni o'zbek tiliga *"men u bilan bir kunda bitta stol atrofida uch marta uchrashar edim"* deb tarjima qilish yuqoridagi fikrimizga yorqin misol bo'la oladi.

Den Braunning "Farishtalar va Iblislar" asaridagi ushbu jumlaga e'tibor bersak: *"Evidence? What evidence? Langdon was wondering the same thing"*. Tarjima varianti quyidagicha: *"Dalillar? Qanday dalillar? Qanday dalillar borligi Lengdon uchun ham qiziq edi"*.

4. Transformatsiyaning yana bir turi antonimik tarjima hisoblanadi. Bunda ba'zi hollarda asliyatda qo'llanilgan so'z tarjimada antonim bilan almashtiriladi, ya'ni asliyat matnidagi tasdiq tarjima variantda inkorga, inkor esa tasdiq shaklda beriladi. Masalan, *"take it easy - tashvishlanaverma"*, *"I don't want to cheat - Men to'g'risini aytaman"* tarzida tarjima qilinishi mumkin. Antonimik tarjimani qo'llashga sabab quyidagilar: 1) asliyat va tarjima tillari xususiyati; 2) kontekst talablari; 3) tarjima tilidagi an'anaviy normaning mavjudligi. Antonimik tarjima tarjimada adekvatlikni saqlab qolishga qaysidir ma'noda xizmat qiladi. Masalan, Den Braunning "Farishtalar va Iblislar" asarida: *"Vittoria! Are you insane?"* so'roq gapi berilgan va u o'zbek tiliga darak gap shaklida tarjima qilingan: *"Vittoriya! Esingizni yig'ing"*.

5. Transformatsiyaning eng ko‘p qo‘llaniladigan yana bir turi kompensatsiya yoki gapning tushirib qoldirilgan qismini to‘ldirish deb ataladi. Bu odatda asliyatdagi stilistik usullarni tarjima tilida muqobili yoki ekvivalenti yo‘q bo‘lgan hollarda qo‘llaniladi. Matnning stilistik jihatdan to‘laqonli bo‘lishida bir stilistik usul o ‘miga iloji boricha uning o‘rnini to‘liq bosadigan boshqa bir stilistik usuldan foydalanish nazarda tutiladi. Kompensatsiyadan qahramon nutq xususiyatlarini tarjima qilishda, so‘z o‘yinini hamda qofiyadosh so‘zlarni berishda keng qo‘llaniladi. Matnda muallif tomonidan maxsus qo‘llangan fonetik, grammatik, stilistik vosita va usullar aksariyat hollarda tushirib qoldiriladi va uning o‘rnini qoplash va mazmun muvozanatini saqlash, stilistik yo‘qotishni to’ldirish uchun kompensatsiyadan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Den Braunning “Farishtalar va Iblislar” asarining o’zbek tiliga tarjima variantida ham kompensatsiya usulidan samarali foydalaniganligini kuzatishimiz mumkin. Misol uchun: *“In other words, you didn’t trust the board of directors to place prudent science before financial greed”* gapi tarjimada shunday berilgan: *“Boshqacha qilib aytganda, direktorlar kengashi moliyaviy daromaddan ko’ra fanni qadrlashiga shubha qilgansiz”.*

XULOSA.

Umuman, Den Braun asarlarining o‘zbek tiliga qilingan tarjimalari lingvistik tarjima tadqiqotlari uchun obyekt bo‘la oladi. Ushbu asarlar tarjimasida leksik transformatsiyaning barcha usullaridan maqsadli foydalanilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kazakova, T. A. E. (2006). *Художественный перевод: в поисках истины*. Изд-во С.-Петербургского университета.
2. G’afurov I, Mo’minov O, Qambarov N. Tarjima nazariyasi: Oliy o ‘quv yurtlari uchun o‘quv qo’llanma. – Toshkent: Tafakkur Bo‘stoni, 2012. 216 b.
3. Tarjimada leksik va grammatik transformatsiyalar // Arxiv.uz, yuklangan sana: 20.09.2019, URL: https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/ tarjimada leksik-va-grammatik-transformatsiyalar.
4. Dan Brown. “Angels and Demons”. - USA: “Pocket books”, 2000.
5. Дэн Браун “Фаришталар ва Иблислар”. – Тошкент, ИЛМ-ЗИЁ ЗАКОВАТ, 2023.
6. Dan Brown. “The Da Vinchi Code”. – New York: “Doubleday”, 2003.
7. Дэн Браун “Да Винчи Сири”. – Тошкент, Ёшлар матбуоти, 2023.